

KASBIY KOMPETENSIYA VA PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTLIGI

Nosirov Bunyodjon G'offorali o'g'li

Professional ta'limdi rivojlanirish instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Kasbiy rivojlanish, o'z sohasi va unga turdosh sohalarda samarali faoliyat yurita olish, hamda faoliyatda insoniy fazilatlarni umumlashtira olish bugungi kun kadrlariga qo'yiladigan asosiy talab hisoblanadi. Bu tushunchalarni umumiyl holda kasbiy kompetensiya deyiladi. Shundan kelib chiqib pedagogning ham o'ziga xos kasbiy kompetensiyalari belgilanishi tabiiy hol. Ushbu maqolada kasbiy kompetensiya va pedagogik kompetentlik masalalariga qisqacha to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, pedagogik kompetentlik, maxsus kompetentlik, kreativ, ekstremal, kommunikativlik, kasbiy rivojlanish.

Аннотация: профессиональное развитие, умение эффективно работать в своей области и смежных с ней областях, а также обобщение человеческих качеств в деятельности являются основными требованиями, предъявляемыми к сегодняшним кадрам. Совокупность этих понятий называется профессиональной компетенцией. Исходя из этого, вполне естественно, что и у педагога определяются специфические профессиональные компетенции. В этой статье кратко рассматриваются вопросы профессиональной компетентности и педагогической компетентности.

Ключевые слова: компетентность, профессиональная компетентность, педагогическая компетентность, специальная компетентность, креативность, экстрем, коммуникативность, профессиональное развитие.

Annotation: professional development, the ability to carry out effective activities in their field and related areas, and the ability to generalize human qualities in activities are the main requirements for today's personnel. These concepts in general are called professional competence. It is natural that, from this, specific professional competencies of the educator are also established. This article briefly addresses issues of professional competence and pedagogical competence.

Keywords: competence, professional competence, pedagogical competence, special competence, creative, extreme, communicativeness, professional development.

KIRISH. Siyosiy va ijtimoiy turg'unlik hukm surayotgan jahoning ko'plab mamlakatlarida taraqqiyotning asosiy poydevori ilm-fan ekanligi

<https://tuiamebb.uz>

<https://uz-conference.com>

yanada aniq o'z isbotini topmoqda. Rivojlangan mamlakatlar hamda sust rivojlanayotgan mamlakatlari orasidagi tafovutni qisqartirish g'oyasi BMT tomonidan ilgari surilar ekan, bunda asosiy e'tibor sust rivojlanayotgan hamda o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda ta'lim taraqqiyotini jadallashtirish, malakali kadrlarni tayyorlash, muammoli vaziyatlarda noan'anaviy qarorlar qabul qila oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash masalalari mamlakat siyosiy darajasigacha ko'tarilmoqda.[6,20] Asrimizning dastlabki yillarda kadrlar asosan bilim, ko'nikma hamda malakalariga qarab baholangan bo'lsa, so'nggi yillarda barcha bilim va insoniy fazilatlar majmuyi sifatida kompetensiyasi yoki kasbiy kompetentligi baholanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida xalqaro talablarga javob bera oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, yoshlarni egallagan sohasidan kelib chiqib munosib ish o'rni bilan ta'minlash, zarur hollarda egallagan kasbiy darajasiga qarab xorijiy mamlakatlarda ham ish bilan ta'minlash masalalarini hal qilish maqsadida prezidentimiz tomonidan PF-5812-sonli prezident farmoni qabul qilingan. Unda "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi[1] asosida YUNESKO tashkiloti tomonidan tashkil etilgan Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (TXST)ga mos yangi professional ta'lim muassasalarini tashkil etish asosiy vazifa sifatida belgilangan edi. Shuni inobatga olgan holda 2020-2021-o'quv yilidan xalqaro tasniflashning 3-darajasiga mos keluvchi boshlang'ich(kasbhunar maktabi), 4-darajadagi o'rta(kollej) va 5-darajadagi o'rta maxsus(texnikum) professional ta'lim muassasalari tashkil etildi va bu respublika bo'ylab keng miqyosda yo'lga qo'yildi. [2]

Professional ta'lim muassasalari bitiruvchilarini zamon talablariga to'la javob bera oladigan, raqobatbardosh kadr sifatida yetishishi avvalo ularga ta'lim beruvchi pedagoglarning tayyorgarlik darjasи, bilimi, kasbiy kompetensiyalarining shakllanganligi bilan uzviy bog'liqdir.

USLUBLAR. Ushbu maqola adabiyotlar tahlili, qiyoslash, taqqoslash, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqa tadqiqot metodlaridan foydalangan holda shakllantirildi.

NATIJA VA MUNOZARALAR. Kompetensiya" so'zi tarjimada "layoqatli", "munosib bo'lmoq" kabi ma'nolarni anglatuvchi lotincha "competere" so'zi asosida hosil bo'lgan.[13] "Kompetentlik" va "Kompetensiya" tushunchalari haqida turlicha qarashlar yoki ta'riflar mavjud bo'lib, bu tushunchani ilk bor keng miqyosida tahlil etgan olim ingliz olimi J.Raven bo'lib, u kompetentlikni ma'lum bir fan yoki sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan bilimlar, qobiliyatlar, ko'nikma va malakalar majmuyi deb izohlaydi. Kompetentlik – bu faoliyatga qo'shilish

paytida olingan shaxsning malaka xarakteristikasidir deb izohlaydi o'z tadqiqotlarida B.Yu.Yelkonin. A.G.Bermusga ko'ra, "Kompetentlik takomillashib borayotgan shaxsning barcha insoniy hislatlarini, bilimi, tajribasi, umuman olganda, butun borlig'ini yagona tizimga birlashtirishidir".[10] "Kompetentlik" bu nafaqat har sohada bilimdonlik, balki o'z bilimlarini uzliksiz ravishda yangilab, o'z ustida ishlab borishi hamdir, – deydi M.A.Choshanov. Agar inson ma'lum bir sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyor bo'lsa undagi bilim va sifatlar kompetensiya deyiladi deb yozadi M.Aronov tadqiqot ishlarida.[14]

O.Ye.Lebedev mutaxassislarning noaniq vaziyatlarda samarali faoliyat ko'rsata olish qobiliyati bu kompetentlikdir deb hisoblaydi.[3] Kompetensiya va kompetentlik haqida umumiyligi va keng qamrovli ishlar olib borgan A.V.Xutorskiy bo'lib, uning qarashlari hozirgacha dolzarbligini yo'qotmagan. U "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini faoliyatda alohida mazmun kasb etib, ularni quyidagicha ajratib olish mumkinligini takidlaydi. Kompetensiya – insonning shaxsiy sifatlari uzviyligi (bilim, malaka, tajriba, faoliyat usullari) hisoblanib, ma'lum bir doiradagi narsa va jarayonlarga nisbatan shaxsning munosabatida sifatli va samarali faoliyat yurgazishidir. Kompetenlik esa inson tomonidan faoliyat turlariga shaxsiy munosabatini bildiruvchi, talabga javob beradigan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lishi demakdir.[11]

Bundan ko'rindiki jamiyatdagi barcha yangilanishlarga moslashish, taraqqiyot bilan hamnafas takomillashib boruvchi kadr uchun shaxsiy yetuklik bilan birga kasbiy kompetentlik ham katta ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlarida kompetensiya masalasi uning inson shaxsiy va kasbiy faoliyatidagi yoki jamiyatdagi o'rni masalasidan qator bahslar davom etmoqda. Ta'lif tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatish, shaxsiy rivojlanish sohasida asosiy kompetensiya elementlarini aniqlash, uni shakllantirish, rivojlantirish hamda takomillashtirish masalasi zamonaviy pedagogikaning eng asosiy muammolaridan biridir. Kompetensiya masalasida xalqaro pedagoglar tajribasini amaliyotga tatbiq qilish yoki asrlar davomida shakllanib kelayotgan milliy o'zbek pedagogikasi me'yorlaridan kelib chiqqan holda kompetensiya mezonlarini ishlab chiqish bo'yicha fikrlar xilma-xilligicha qolmoqda.[5]

Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari tahlili bilan o'zbek olimlaridan N.A.Muslimov, S.Yu.Ashurova, K.J.Risqulova, J.Xujayev, R.V.Djo'rayev, Sh.Sharipov, U.Begimqulov va boshqalar samarali faoliyat olib borishgan.[2] K.J.Risqulova "Kompetensiya" har qanday kasb egasiga zarur bo'lgan kasbiy qonun-qoidalar, tamoyillar, talablar, burch, vazifa hamda

majburiyatlar, shuningdek, shaxsiy deontologik me'yorlar yig'indisi deb hisoblaydi. Shaxs amaliy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, kompetensiya me'yorlarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahorati komtenentlik bo'ladi degan xulosaga kelgan. A.Avloniy nomidagi O'qituvchilar malakasini oshirish instituti pedagog olimasi L.T.Xurvalieva: "Kompetensiya – bilim, ko'nikma, malaka, qarashlar, individning qadriyati va shaxsiy sifatlari, kvalifikatsiyaning namoyon bo'lishi yoki ta'sir ko'rsatish qobiliyati", – deb ta'riflaydi.[4] Berilgan barcha ta'riflar, ilmiy asoslar, tadqiqot ishlarini umumlashtirgan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida uzlusiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida "Kompetensiya — bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmui" deb umumiy va qisqacha ta'rif keltirib o'tilgan.

O'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi hamda kompetentligi muammozi N.A.Muslimov, Sh.E.Qurbanov, F.R.Yuzlikayeva, A.R.Xodjaboyev, X.F.Rashidov, Sh.S.Sharipov, O.X.To'raqulov, D.O.Ximmataliyev, O.A.Qo'ysinovlar tomonidan tadqiq qilingan.[7] Pedagogning kasbiy kompetentligi A.Markova, B.Nazarova ishlarida asosiy 4 ta guruhga ajratilgan bo'lib, ularning umumiy qarashlari hozirgacha ilmiy tadiqoqt ishlari uchun asos vazifasini bajarib kelmoqda.[16]

Pedagogik kompetentlik bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot ishalri orasida L.M.Mitinaning qarashlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, u pedagogik kompetentlik - deganda predmet haqidagi bilimlar, o'qitish metodikasi va didaktikasi, pedagogik muloqot ko'nikma va malakasi, shuningdek o'zo'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirish, o'zo'zini amalga oshirish usullari va vositalarining uyg'un birlashishini tushungan. U pedagogik kompetentlik tuzilmasida quyidagi uchta tashkil etuvchini ajratgan: faoliyatli, kommunikativ va shaxsiy. L.M.Mitina tomonidan taklif etilgan pedagogik kompetentlikni tuzilmalashtirishdan kelib chiqqan holda, biz, bo'lajak mutaxassislar uchun egallanish darajasi pedagogik kompetentlikning rivojlanish darajasini aniqlaydigan quyidagi kompetensiyalar majmuasi yetarli va zarur deb hisoblaymiz.

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda, jamoaviy faoliyatda doimiy faollik ko'rsatish va boshqa ijtimoiy ko'nikma, malakalarga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar(o'quvchi, talaba, ota-onasi va hokazo) bilan

muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishda yuksak tayyorgarlik, yetarli malakalarga egalik, kasbiy-pedagogik faoliyatda kelib chiqadigan turli vaziyatlarni mohirona hal qilish, o'z faoliyatini, kasbiy rivojlanishi, jamoaviy taraqqiyotini doimiy nazorat qilish va natijalarini real baholash, o'z ustida doimiy ishslash, shu bilan birga psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik kabi bir qancha kompetensiyalarni o'z ichiga oladi.[17]

V.A. Slastenining qarashlarida asosiy urg'u o'qituvchi faoliyatini vazifalar nuqtayi nazaridan tizimlashtirishga qaratilgan bo'lib, "pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra turli sinflar va darajadagi tipik va o'ziga xos pedagogik vazifalar to'plamini hal qilish jarayonidan boshqa narsa emas" deb hisoblaydi. Shuningdek V.A. Slastenin "Pedagogik muammolarni yuqori mahorat darajasida hal qilishga tayyorlik bir qator kasbiy va pedagogik mahorat bilan belgilanadi" deb pedagogic mahurat haqida ham qimmatli fikrlarni keltirib o'tgan. U belgilagan tegishli malakalar tizimi o'qituvchi-pedagogning kasbiy mahoratini shakllantirishning assosi sifatida qaraladi.[9]

Yu.N.Kulyutkin pedagogik faoliyatni "odamdan odamga" yoki subyektdan subyektga turidagi kasblar guruhiga kiritadi, ular shaxslarning o'zaro munosabatlari bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, "o'qituvchi o'quvchida keljakda o'zining keljakdagi faoliyatini mustaqil boshqarish imkonini beradigan "ichki asoslarni" (bilimlar, e'tiqodlar, usullar, harakatlar) shakllantirishga intiladi. Pedagogik faoliyat ushbu nazariyada o'qituvchining o'quvchining shaxsini rivojlantirish uchun uning faoliyatini refleksli nazorat qilish sifatida namoyon bo'ladi.[12] Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda;[18]

Kasbiy kompetentlik deganda mutaxassis dunyoqarashining kengligi, uning ishbilarmonlik mahorati va shaxsiy sifatlari, bilim, ko'nikma hamda malakalariga suyangan holda to'g'ri qarorlar qabul qila olishi tushuniladi. Oliy ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi takomillashuvida nazariy tayyorgarliklar bilan birga amaliy tayyorgarliklar uzviyligi ta'minlanishi kerak. Bolajak o'qituvchilarining nazariy va amaliy tayyorgarligi tashkiliy jihatdan qanday shakl va melodlarda bo'lmasin, quyidagi didaktik tamoyillarga asoslanadi:

1. Nazariy va amaliy bilimlar uzviyligi;
2. Kasbiy bilim va ko'nikmalarni tizimli tarzda takomillashtirib borishi;
3. Bo'lajak kasbiy-pedagogik faoliyat bilan funksional bog'liqlik;
4. Talabalar amaliy faoliyatining ko'rgazmaliligi;
5. O'z kasbiy faoliyati yuzasidan bosqichma-bosqich mustaqil faoliyat yurgazishga intilish va mas'uliyal hissini shakllanishi;
6. Bo'lajak o'qituvchilarda nazariy va amaliy bilimlar hamda ko'nikmalarini takomillashishi natijasida kompetensiyani shakllanishi va rivojlanishi.[19]

Pedagogning kompetentligi – bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas'uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish. O'z sohasini, ishining ustasi bo'lish, sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilish demakdir. Pedagogik kompetensiyaning shakllanish bosqichlari:

1. Qobiliyatni aniqlash
2. Tarbiyalash va shakllantirish
3. Chiniqtirish (kichik hajmdagi topshiriqlar berish)
4. Ishonch (mustaqil rahbarlik lavozimiga tayinlanish)
5. Rahbarlik cho'qqisi[8]

XULOSA. Tahlil qilingan tadqiqot ishlari va olingan ma'lumotlarga asoslangan holda biz A.V.Xutorskiy tomonidan pedagogning kasbiy kompetensiyasiga oid tarifini ma'qul deb hisobladik. Unga ko'ra ta'lim jarayonida o'qituvchida yettita kompetensiya bo'lishi maqsadga muvofiq:

1.Dunyoqarash asosida milliy qadriyatlar va o'zini anglash - o'qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. U atrof-muhitdagi voqeа va hodisalarining mohiyatini ko'ra oladi va tushunadi, bunga o'zini yo'naltiradi, pedagog sifatida o'z fikrini asoslay oladi. Muammo yechimini topa oladi. Bu kompetensiya - o'qituvchining o'quv va boshqa faoliyatlaridagi o'z-o'zini anglash mexanizmini ta'minlaydi.

2.Ummadaniy milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo'lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oilasiga, urf-odatlarga hurmat; ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lish. Ilm-fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta'sirini angloy olishi va talabalarga tushuntira olishi.

3.O'quv va bilish jarayoni - o'qituvchining mustaqil bilish faoliyati. Mantiqiy fikrlashi. O'quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko'nikmasini tahlil qila olishi. 4.Ma'lumotga ega bo'lish - pedagogik faoliyati, o'z faniga doir ma'lumotlarni egallash ko'nikmasi.

5.Muloqotchanlik - til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo'lishi, jamoada o'ziga xos o'rinda turishi.

6.Ijtimoiy - foydali mehnat, oilaviy munosabatlар va mas'uliyat, jamiyat rivojidagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko'nikmalarga ega bo'lish.

7.O'z ustida ishlashi - jismoniy, ma'naviy, intellektual jihatdan o'z-o'zini rivojlantirib borishi.[15]

«Pedagogning kasbiy kompetentligi» tushunchasi har zamonda turli olim, tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilib kelinmoqda. Biz bu berilgan ta'riflarni umumlashtirib quyidagicha izohlashni maqsadga muvofiq deb topdik: Pedagogning kasbiy kompetentligi – pedagog faoliyatda eng muhim jihatlardan biri bo'lib, pedagogning faqatgina kasb va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishlarinigina ifodalab qolmay, uning insoniy fazilatlari, muomala madaniyati, kasbiy o'sishi, mas'uliyati va boshqa xususiyatlarini ham o'zida ifodalarydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi "Professional ta'lif tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5812-son farmoni.
2. Nosirov.B.G., "Professional ta'lif tizimida masofaviy ta'lifdan foydalanish istiqbollari". E-ISSN : 2181-4341. IQRO JURNALI / 2023 VOL-2 ISSUE- 1.
3. Morris.L.V., Xu.H.,&Finnegan.C.L. Roles of faculty in teaching asynchronous undergraduate courses. Journal of Asynchronous Learning Networks, 65–82 page. 2005y.
4. M.D.Yaqubova, "Tarbiyachilar kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali faoliyatlar samaradorligini oshirish texnologiyalari? - "PEDAGOGS" international research journal ISSN: 2181-4027, Volume-43, Issue-1, October - 2023.
5. B.G'.Nosirov. "Masofaviy ta'lif sharoitida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini takomillashtirishning o'rni va ahamiyati". "Pedagogika" ilmiynazariy metodologik jurnal / 2023-yil 4-son; 85-88 betlar.
6. Casey L.Wells "Do students using electronic books display different reading comprehension and motivation levels than students using traditional print books?" Doctor of Education dissertation, Liberty University, Lynchburg, November, 2012.
7. N.A.Muslimov, M.H.Usmonboyeva, D.M.Sayfurov, A.B.To'rayev "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" – Toshkent, 2015 y.120 bet.
8. N.A.Muslimov "Bo'lajak kasb-ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirish" – T.Fan, 2004uil.- 128 bet

9. B.B. Сериков Личностный подход в образовании: концепция и технология: монография. - Волгоград: Перемена, 1994. - 152 с
10. E.R.Sari "Teacher professional development in an online learning community: a case study in Indonesia" PhD dissertation Edith Cowan University, March 2012y
11. D.X.Asanova, F.F.Salamov, Y.X.Xalikov "Kasbiy kompetentlik" - o`quv qo'llanma. Samarqand: Iqtisodiyot, 2020 yil.- 86 bet
12. B.G' Nosirov "Masofaviy ta'lif sharoitida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini takomillashtirish tuzilmasi" – "Innovations in technology and science education" jurnali 2-son, 2023-yil. 146-152-betlar.
13. Ochilovich, S. Z., Abduganievich, D. N., Nematovich, S. S., & Sadirovich, S. N. (2021). EFFECT OF FORCES ON AIR CONVEYING DEVICES AND NETWORK ON COTTON SEED QUALITY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 771-775.

Internet manbalari

14. <https://interonconf.org/index.php/neth/article/view/7182>
15. <https://prezi.com/p/fobbzhl3yyd/kompetensiya-tushunchasi/>
16. <https://www.researchgate.net/publication/376380672>
17. www.ziyonet.uz
18. <https://azkurs.org/kompetensiya-haqida-malumot-kompetensiya-turlari.html>
19. <https://elib.buxdupi.uz/books/uslubiy%20qo'llanma.pdf>
20. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000110749>